

## MILLIY ARMIYAMIZ MUSTAQILLIGIMIZNI ISHONCHLI HIMOYA QILISHNING CHINAKAM KAFOLATIDIR

**Mamadalimov Azimjon Xasanboyevich**

*Harbiy ta'lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, zaxiradagi podpolkovnik, dotsent.*

**Anotatsiya.** *O'zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo'lmoqda.*

*Eng asosiysi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.*

**Kalit so'zlar.** *“Mudofaa va xavfsizlik”, qasamyodiga sodiq, Mudofaa doktrinasi, Qurolli Kuchlar, Armiya, global iqtisodiy inqiroz, mafkuraviy immunitetni, fuqarolik pozitsiyasi, axborot makoni, axborot texnologiyalari, mudofaa qobiliyati.*

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining “Fuqarolarning burchlari” XI-bobida 64- moddasida ko'rsatilganidek: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.


Shuningdek, “Mudofaa va xavfsizlik” XXVII-bobida 152-moddasida ko'rsatilganidek: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

153-moddasida ko'rsatilganidek: O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topishini

Birinchi davr (1992-1995yy.) katta o'zgarishlar kiritish ko'zda tutilmagan va kerakli texnika va qurol-yarog'larga ega bo'lgan Quruqlikdagi Qo'shinlarning boshqaruv organlari joriy etildi. 1992 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti «Mudofaa to'g'risida», «Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat to'g'risida», « Muqobil xizmat to'g'risida» qonunlar va «Harbiy qasamyod to'g'risidagi» qarorni qabul qildi.



Armiyaning tashkiliy-shtat tizimini takomillashtirish harbiy qismlar va harbiy bilim yurtlarini qayta qurish ishlari amalga oshirildi. 1992 yil 23 yanvarda Vazirlar Maqkamasining Qarori bilan Milliy gvardiya tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 23 - sentyabrdagi 445 – sonli Qarori bilan «Qurolli Kuchlarda harbiy intizomni mustahkamlash va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish to‘g‘risida» hamda «Harbiy qismning Jangovar Bayrog‘i to‘g‘risida», qarorlar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Qarori bilan 14 yanvarni «Vatan himoyachilari kuni» deb e‘lon qilindi.

1994 yili O‘zbekiston Respublikasining «Mustaqillik», «Do‘stlik» ordenlarini, hamda «Jasorat», va « Shuhrat » medallarini ta‘sis etish to‘g‘risidagi Qonunlari qabul qilindi. Respublikada milliy, yuqori saviyali ofitser kadrlarini tayyorlashga muhim ahamiyat qaratildi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi tashkil qilindi.

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan xulosa qilib shuni aytish joyizki, ushbu qutlug‘ ayyom tom ma‘nodagi umumxalq bayramiga, azaldan xalqimizga xos bo‘lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Ta‘kidlash kerakki, milliy armiyamizning kuch-qudrati azm-u shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag‘rikeng va olijanob xalqimizning birligi va hamjihatligidadir. Bu haqiqatni bugungi kunda har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz.

Biz bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan – o‘zining muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, xizmat burchini yerda ham, ko‘kda ham sharaf ila ado etayotgan yurtimizning zabardast o‘g‘lonlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Bizning O‘zbekistonda bundan to‘rt yil oldin harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha eng muhim va ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olgan edik. Shu asosda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish uchun keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

O‘tgan qisqa davrda yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi, harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko‘rib chiqildi, qo‘shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha o‘ta muhim loyihalar amalga oshirildi.

Tariximizda birinchi marta o‘z mohiyatiga ko‘ra noyob tizim – harbiy-ma‘muriy sektorlar tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish uchun imkon



berdi. Eng muhimi, “Armiya va xalq – bir tan-u bir jondir” degan ulug‘ g‘oyani amalda ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Ana shunday sa’y- harakatlarimiz natijasida, bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo‘lmoqda.

Eng asosiysi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.

Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrati va salohiyatini yanada oshirish imkonini berdi.

Pahlavon va botir o‘g‘lonlarimiz xalqaro harbiy-o‘quv mashg‘ulotlari, armiya va sport musobaqalarida dunyodagi yetakchi mamlakatlarning harbiy xizmatchilariga aslo bo‘sh kelmasdan, g‘alabaga bo‘lgan irodasini yaqqol namoyish etib, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanini isbotlamoqdalar.

Biz global iqtisodiy inqiroz ta’siriga qaramasdan, harbiy xizmatchilarimiz va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, harbiy shaharchalarni obodonlashtirish, ularda zamonaviy infratuzilmalar barpo etish bo‘yicha tizimli ishlarimizni izchil davom ettiryapmiz.


Harbiy xizmatchilarning oila a’zolari uchun qo‘shimcha ravishda ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratildi. 3 mingdan ziyod harbiy pensionerlar ishga joylashtirildi. Harbiy xizmatchilarning mingdan ortiq farzandlariga oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishlari uchun davlat grantlari ajratildi.

Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni jismoniy va ma’naviy sog‘lom, Ona Vatanga fidoyi va jonkuyar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, shonli tariximizdan ibrat olib, undan faxrlanib yashashlari uchun barcha kuch va imkoniyatimizni to‘liq safarbar etamiz.

Jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda barchamiz doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishimiz kerak.

Ayniqsa, adashib, yot g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar va ularning farzandlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularni sog‘lom turmush tarziga, to‘g‘ri yo‘lga qaytarishda harbiy xizmatchilarimiz davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlarni yana-da kuchaytirishi lozim.

Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O‘zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart.



Xususan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan ta‘minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish – bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo‘lib qoladi.

Hech shubhasiz, birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan ana shunday ezgu maqsad va marralarga erishishga, xalqimizning tinch mehnati, osoyishta hayotini, yurtimizning musaffo osmonini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga har tomonlama qodirmiz. Kelajak avlodni bu yo‘lda tarbiyalashda hech qachon to‘xtab qolmasligimiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamadolimov, A., Isa, H., & Mohamad, M. S. (2013). Practical bijective S-box design. arXiv preprint arXiv:1301.4723.
2. Hasanboyevich, M. A., Halilovich, M. S., & Ortikovich, U. A. (2022). AMIR TEMUR ARMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA TUZILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1037-1040.
3. Hasanboyevich, M. A., Khalilovich, M. S., & Mirhokimovich, T. A. (2022). Main Problems of Military-Professional Activity Orientation of Young Students. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 4, 68-70.
4. Жўраева, Н. (2021). Chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. центр научных публикаций (buxdu. Uz), 8(8).
5. Uzokov, A. O., Mamadolimov, A. K., & Toshpulatov, A. M. (2021). THE TECHNOLOGIES OF COLLABORATIVE EDUCATION AND ITS COMPONENT EDUCATION DURING THE LESSON. Актуальные научные исследования в современном мире, (2-5), 50-53.
6. Йулдашев, Х. Т., Ахмедов, Ш. С., & Хайдаров, З. (2017). Исследование инфракрасной фотографической системы на основе кремния, легированного платиной. Журнал фізики та інженерії поверхні, (2, № 1), 12-16.
7. Эгамбердиев, Б. Э., Мамадалимов, А. Т., & Ковешников, С. В. (2012). Физика и диагностика поверхности. Материал поступил в редакцию 20.12, 17, 460.
8. Мамадалимов, А. Т., Оксегендлер, Б. Л., Отажонов, Ш. О., Тураев, Б. Э., Усманов, Т. А., Хакимова, Н. К., & Кадиров, Ж. А. (2002). Особенности фотопроводимости хлопковых волокон с примесью йода при освещении собственной полосой поглощения. Письма в ЖТФ, 28(14), 9-14.
9. Вахабов, Д. А., Закиров, А. С., Мамадалимов, А. Т., & Хабибуллаев, П. К. (1983). Исследование фотоэффектов в кремнии, легированном селеном. Физика и техника полупроводников, 17(11), 2035-2039.
10. Йулдашев, Х. Т., Ахмедов, Ш. С., & Хайдаров, З. (2017). Дослідження інфрачервоної фотографічної системи на основі кремнію, легованого платиною. Журнал фізики та інженерії поверхні, 2(1), 12-16.
11. Закиров, А. С., Игамбердыев, Х. Т., Мамадалимов, А. Т., & Хабибуллаев, П. К. (1992). Лазерно-стимулированная диффузия золота в кремнии. Физика и техника полупроводников, 26(7), 1282-1287.





12. Мамадалимов, А. Х. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЭС И ТЭЦ. *Scientific progress*, 3(1), 28-30.

13. Вахабов, Д. А., Закиров, А. С., Игамбердыев, Х. Т., Мамадалимов, А. Т., Турсунов, Ш. О., Юлдашев, Х. С., & Хабибуллаев, П. К. (1988). Термодинамические свойства кремния, легированного золотом. *Физика твердого тела*, 30(7), 1979-1983.

14. Мамадалимов, А. Х., & Хасанов, И. А. Ў. (2022). ТАБИЙ ВА ИС ГАЗИДАН ЗАҲАРЛАНИШДАН ОГОҲ БЎЛИНГ!. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 782-785.

15. Єршов, С. О. (2021). Розпізнавання прихованих структур S-блоків на основі алгебраїчних властивостей операції додавання за модулем (Master's thesis, КПІ ім. Ігоря Сікорського).

16. Абдукадиров, А. Т., & Шодиев, А. А. (2020). QUYOSH ENERGIYASINI ELEKTR ENERGIYASIGA AYLANDIRUVCHI VA SHO 'R SUV VOSITASIDA ENERGIYANI TO 'PLAB VA SAQLAB TURUVCHI QURILMA (LOYIHA). *Журнал Технических исследований*, 3(6).

17. Далиев, Ш. Х., Мамадалимов, А. Т., & Бекмуратов, М. Б. (2019). ВЛИЯНИЕ АТОМОВ ЭРБИЯ, ЛАНТАНА И РОСТОВЫХ ПРИМЕСЕЙ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ РАДИАЦИОННЫХ ДЕФЕКТОВ В КРЕМНИИ. «Узбекский физический журнал», 21(4), 267-269.

18. Игамбердиев, Х. Т., Мамадалимов, А. Т., Муминов, Р. А., Усманов, Т. А., & Шоюсупов, Ш. А. (2003). Исследование фотоемкости диодов из кремния, легированного ванадием. *Физика и техника полупроводников*, 37(1), 29-31.